


KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO‘NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIIY
RIVOJLANISHINING ASOSIIY YO‘NALISHLARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami*
(2025-yil 21-22-noyabr)

JIZZAX-2025

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 592-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

O‘ZBEKISTONDA MEVA-SABZAVOTNI QAYTA ISHLASH SANOATINING SHAKLLANISHI VA IQTISODIY MOHIYATI

Rahmatullaev Mirjalol Xatam o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

e-mail: raxmatullayevmirjalol0787@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda meva-sabzavotni qayta ishlash sanoatining shakllanishi va iqtisodiy mohiyati tizimli ravishda tahlil qilingan. Tadqiqotda 2016-yildan boshlab tarmoq rivojida muhim ahamiyat kasb etgan huquqiy va institutsional islohotlar, xususan, PQ-2505-sonli Prezident qarorining roli yoritilgan. Meva-sabzavotni qayta ishlash jarayonining xomashyo mavsumiyligi va tez buziluvchanligi sharoitida qiymat zanjirida barqarorlikni ta‘minlash, qo‘shilgan qiymatni oshirish hamda tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, qayta ishlash sanoatining logistika infratuzilmasi, standartlashtirish va sertifikatlash, innovatsion mahsulotlar va brendlash orqali eksport salohiyatini kengaytirishdagi roli asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari meva-sabzavotni qayta ishlash sanoati milliy iqtisodiyotda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish va hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlovchi muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: meva-sabzavotni qayta ishlash, qo‘shilgan qiymat, qiymat zanjiri, eksport salohiyati, logistika infratuzilmasi, klaster va kooperatsiya, standartlashtirish, innovatsion mahsulotlar, iqtisodiy samaradorlik.

Kirish

O‘zbekistonda meva-sabzavotni qayta ishlash sanoati qishloq xo‘jaligi va sanoat tarmoqlari integratsiyasini ta‘minlovchi strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur tarmoqning zamonaviy shakllanishi 2016-yildan boshlab aniq huquqiy va institutsional asosga ega bo‘lib, davlat tomonidan qabul qilingan konseptual qarorlar orqali tizimli rivojlanish bosqichiga ko‘tarildi. Xususan, 2016-yil 5-martdagi PQ-2505-sonli Prezident qarori meva-sabzavotni chuqur qayta ishlashni rivojlantirish, xomashyo bazasini mustahkamlash hamda eksport salohiyatini kengaytirishni ustuvor vazifalar sifatida belgilab berdi. Ushbu hujjat doirasida qayta ishlash quvvatlarini modernizatsiya qilish va yangi ishlab chiqarish obyektlarini ishga tushirish davlat dasturi shaklida amalga oshirila boshlandi.

So‘nggi yillarda meva-sabzavotchilikni tizimli tarzda bog‘laydigan klaster paradigmasi siyosat darajasiga ko‘tarilganini 2018-yil 29-martdagi PF-5388 farmonidagi quyidagi sozlar orqalinifodalash mumkin: “Respublikada ishlab chiqarishni kengaytirish, meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va eksport qilishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda”. Farmonda klasterlarda “urug‘-ko‘chatdan tortib eksportgacha” bo‘lgan jarayonlarni yagona boshqaruv ostida integratsiyalashni ko‘zda tutiladi, bu esa qayta ishlash korxonalarini fermerlar, tayyorlovchilar va eksportyorlar bilan uzoq muddatli shartnomalar va qo‘shma investitsiya loyihalari orqali uzviy bog‘ladi. “Klasterning

iqtisodiy samarasi qo‘shilgan qiymat zanjirida qayta ishlash bo‘g‘inining ulushi ortishi va tannarx boshqaruvining kuchayishi bilan namoyon bo‘ladi” .

Asosiy qism

Meva-sabzavotni qayta ishlash tarmog‘ining iqtisodiy mohiyati, avvalo, xomashyoning mavsumiyligi va tez buziluvchanligi sharoitida qiymat zanjirida barqarorlik va qo‘shilgan qiymat yaratish mexanizmlarini shakllantirish bilan izohlanadi. Qayta ishlash bo‘g‘ini xomashyoni issiqlik bilan konservatsiya qilish, quritish, muzlatish, pyure va konsentratlarga aylantirish, sharbatlash, qadoqlash kabi texnologik operatsiyalar orqali mahsulotning iste‘mol muddatini uzaytiradi, transportbopligini oshiradi va ichki bozor hamda eksport segmentlarida narx differensialini kengaytiradi. Shu tariqa, korxonalar mavsumiy narx tebranishlaridan keladigan risklarni dampferlaydi, ishlab chiqarish quvvatlarini yil davomida band saqlaydi va o‘zgaruvchan talabga moslashish qobiliyatini kuchaytiradi. “Qayta ishlash jarayoni ishlab chiqarish zanjirida eng yuqori iqtisodiy samarani keltiruvchi bosqich bo‘lib, aynan shu yerda xomashyo tayyor mahsulotga aylanadi va qo‘shilgan qiymat ko‘payadi”. Mazkur bo‘g‘inda yaratiladigan qiymat ko‘pincha texnologiya darajasi, qadoqlash sifati, saqlash va logistika infratuzilmasiga bog‘liq bo‘lib, ularning har biri qo‘shimcha narx (premium)ni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, meva-sabzavotni qayta ishlashning iqtisodiy mazmuni, shuningdek, tranzaksiya xarajatlarini (xarid, saqlash, shartnoma bajarilishi ustidan nazorat) pasaytirish va axborot nomutanosibligini qisqartirish orqali ham namoyon bo‘ladi. Fermerlar bilan uzoq muddatli kontraktatsiya, klaster va kooperatsiya modellari xomashyo oqimlarini kafolatlaydi, sifat parametrlarini (quruq modda, shakar miqdori, kislotalilik) oldindan kelishish imkonini beradi va yetkazib berishning vaqtida bajarilishini oshiradi. Shu bilan birga, qayta ishlash korxonalari tomonidan amalga oshiriladigan standartlashtirish va sertifikatlash (HACCP, ISO 22000) jarayonlari dastlab qo‘shimcha xarajat yukini keltirib chiqarsa-da, o‘rta muddatda narx premiumi va kengaygan bozor imkoniyatlari hisobidan ijobiy sof joriy qiymat (NPV) yaratadi.

Iqtisodiy mohiyatning yana bir yo‘nalishi - qiymat differensialini kengaytiradigan innovatsion mahsulotlar va brendlash orqali marjani oshirishdir. Konsentrat mahsulotlar, suyultirilmagan tabiiy sharbatlar, bolalar ozuqalari, “toza yorliq” (ya‘ni kimyoviy qo‘shimchalarsiz) konservalar, alohida tez muzlatilgan mahsulotlar hamda qulay iste‘mol formatlari ulushi ortgani sayin, talabning elastikligi kamayadi va narxni o‘tkazish samaradorligi yaxshilanadi. Bu esa, o‘z navbatida, eksport bozorlarida talab barqarorligini kuchaytiradi, valyuta tushumlarini diversifikatsiya qiladi hamda mintaqaviy klasterlarda teskari aloqa mexanizmlari orqali agronomik amaliyotlarni modernizatsiyalashga turtki beradi.

Shu bilan birga, meva-sabzavotni qayta ishlash sanoatining shakllanishi hududiy iqtisodiy rivojlanish va qishloq joylarda bandlikni oshirish nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qayta ishlash korxonalarining xomashyo bazasiga yaqin hududlarda joylashtirilishi transport xarajatlarini kamaytirish, yo‘qotishlarni qisqartirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Bu jarayon qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun barqaror

sotuv kanallarini yaratib, ularning daromadlarini prognozlash imkoniyatini kengaytiradi hamda qishloq aholisining iqtisodiy faolligini oshiradi.

Tarmoq rivojida logistika va infratuzilma omili alohida o‘rin tutadi. Sovitkich omborlari, tez muzlatish (IQF) quvvatlari, zamonaviy qadoqlash liniyalari va sertifikatlangan laboratoriyalarning kengayishi mahsulot yo‘qotishlarini kamaytirish bilan birga, eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar ulushini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, sovuq zanjir (cold chain) infratuzilmasining rivojlanishi meva-sabzavot mahsulotlarining sifatini saqlagan holda uzoq masofalarga yetkazib berish imkonini yaratib, tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirmoqda.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan, qayta ishlash sanoatiga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar tarkibida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarining faollashuvi kuzatilmoqda. Imtiyozli kreditlar, soliq preferensiyalari, subsidiyalar va eksportni qo‘llab-quvvatlash dasturlari xususiy sektor uchun investitsion risklarni kamaytirib, texnologik yangilanish jarayonlarini jadallashtirmoqda. Natijada, meva-sabzavotni qayta ishlash korxonalarida mehnat unumdorligi oshib, kapital sig‘imi yuqori bo‘lgan, biroq samarador texnologiyalar joriy etilmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda meva-sabzavotni qayta ishlash sanoati nafaqat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining iqtisodiy qiymatini oshiruvchi, balki hududiy bandlikni ta‘minlovchi, eksportni kengaytiruvchi va agrar sohada texnologik yangilanishni rag‘batlantiruvchi muhim iqtisodiy mexanizm sifatida shakllanmoqda. Mazkur tarmoqning barqaror rivoji milliy iqtisodiyotda yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 2016-yil 5-martdagi PQ-2505-son. 2016-2020-yillarda meva-sabzavot va go‘sh-tut mahsulotlarining xom ashyo bazasini yanada rivojlantirish, ularni qayta ishlashni chuqurlashtirish, oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish va eksport qilishni ko‘paytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. - Toshkent.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 2016-yil 12-apreldagi PQ-2520-son. Meva-sabzavot, kartoshka va poliz mahsulotlarini xarid qilish va ulardan foydalanish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. - Toshkent.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 2018-yil 29-martdagi PF-5388-son. O‘zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. - Toshkent.
4. Колесникова Т.В. Организация учета затрат при производстве и переработке продукции в плодово-ягодном подкомплексе: автореф. дис. ... к.э.н. - Орёл, 2004. - 27 с.